



Received: January 10, 2022
Accepted: March 13, 2022
Available online: March 25, 2022

Shaxnoza Qo'ldasheva

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
katta o'qituvchisi
Toshkent, O'zbekiston

UMUMGERMAN VA UMUMTURKIY TILLAR RIVOJLANISHIDAGI AYRIM QONUNIYATLAR

ANNOTATSIYA

Maqolada umumgerman va umumturkiy tillar rivojlanishiga xos ayrim qonuniyatlar ingliz va o'zbek tillari misolida o'rganilgan. Muallif tillar rivojlanishi va shakllanishining turli belgilari, masalan, konvergensiya va divergensiya omillarining paydo bo'lishi va amal qilishi evolyutsiyasining dolzarb muammolarini tadqiq etgan.

Tadqiqotning maqsadi – german va turkiy tillarining shakllanishida divergensiya va konvergensiya hodisalarini tizimli asosda aniqlashdan iborat.

Tillararo divergensiya va konvergensiya hodisalari fonologik, grammatik, yozuv va leksik tizimlarida mintaqaviy va ekstralingvistik omillar natijasida yuzaga keladi. Maqolada ingliz va o'zbek tillari taraqqiyoti natijasida divergent va konvergent belgilar shakllanishi va rivojlanishining xarakterli xususiyatlari ajratib ko'rsatilgan va tavsiflangan.

German tillari guruhi va uning bir bo'lagi hisoblangan ingliz tili tarixini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda hind-yevropa bobo tilidan umumgerman tillarining, so'ngra shimoliy, sharqiy va g'arbiy german guruhchalari, keyinroq esa alohida german tillarining rivojlanishida divergensiya va konvergensiya hodisalari katta rol o'ynagan bo'lsa-da, bu jarayonlarga jahon tilshunosligida hozirgacha yetarli e'tibor qaratilmagan. Divergensiya va konvergensiya aspektida sodir bo'ladigan turli katta yoki kichik jarayonlarni atroflicha tadqiq etish esa german tillari tarixi va ingliz tili tarixiga oid ko'plab masalalarni o'rganish, nazariy masalalarni tahlil qilish, tegishli ilmiy xulosalar chiqarish hamda ushbu masalalarni filologik ta'lim muassasalariga tatbiq etish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: umumgerman tili, umumturkiy

Shakhnoza Kuldasheva

Senior Teacher, Uzbekistan State World
Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: skuldasheva@mail.ru

SOME REGULARITIES IN THE DEVELOPMENT OF COMMON GERMANIC AND COMMON TURKIC LANGUAGES

ANNOTATION

This article discusses some patterns of development of the common Germanic and common Turkic languages on the example of the English and Uzbek languages. The article is devoted to topical problems of the evolution of the emergence and application of various signs of a language development and formation, for example, factors of convergence and divergence.

The purpose of the article is to systematically identify the phenomena of divergence and convergence in the formation of the Germanic and Turkic languages.

The phenomena of interlingual divergence and convergence arise as a result of regional and extralinguistic factors in the phonological, grammatical, spelling and lexical systems of a language. The characteristic features of the formation and development of divergent and convergent signs as a result of the evolution of the English and Uzbek languages are singled out and described.

In linguistics, studies of the history of the Germanic languages group and its constituent English played an important role in the development of the study of divergence and convergence from the Indo-European parent language to the common Germanic language, then to the Northern, Eastern and West Germanic groups, and later to individual Germanic languages, until now was not given due attention. A comprehensive study of various major processes occurring in terms of divergence and convergence is important in the study of many issues related to the history of the Germanic languages and the history of the English language, making

til, konvergensiya, divergensiya, til taraqqiyoti, tilning evolyutsiyasi, ekstralingvistik sabab, intralingvistik sabab, til kontaktlari.

appropriate scientific conclusions and creating a theoretical basis for teaching these issues at philological universities.

Key words: Common-Germanic, Common-Turkic, convergence, divergence, language development, language evolution, extralinguistic factor, intralinguistic factor, language contacts.

KIRISH

Tilshunoslik tarixida bir qancha lingvistik maktab, oqim va yoʻnalishlar mavjudligi barchaga maʼlum. Ushbu maktablar vakillari ayrim paytlarda tadqiqot obyekti yoki vazifasiga koʻra tillarning tarixini tadqiq qilishga qoʻl uradilar va tillarning umumiy va xususiy tarixini oʻrganishda turli tahlil metodlari, tushunchalar apparati, qonun va kategoriyalardan foydalanadilar. Davrlar oʻtgan sari qoʻllanilgan tadqiqot metodlari, usullari ham takrorlanib, tadqiqot obyektlari ham oʻzgarib boradi. Natijada kecha barcha uchun tushunarli deb qabul qilingan hodisa yoki hukmlarning qorongʻu, jumboqli jihatlarini koʻrinib qoladi.

Huddi shu kabi divergensiya va konvergensiya hodisalari ostida tilshunoslik tarixida alohida olingan til materiali, yaʼni soʻz maʼnosining differentsiatsiyasi (farqlanishi) yoki bir necha leksik-semantik variantlarining yaqinlashuvi kabi mayda hodisalar tushunib kelingan boʻlsa, nemis tilshunosi G.Paulning (1960) mashhur “Til tarixi prinsiplari” (“Принципы истории языка”) asarida birinchi marta differentsiatsiya alohida, yakka olingan til elementiga emas, balki butun boshli shevalar va tillarga nisbatan ishlatiladi. Bu narsa G.Paulning “Yosh grammatikachilar maktabi”ga xos boʻlgan atomizm va atomistik yondashuvdan qutulib keta olganligiga bir dalil boʻldi [Paul H., 1960].

Bu qarash keyinchalik hind-yevropa tillarining turli qatlamlari ustida ish olib borgan bir qator olimlar tomonidan oʻrganilgan [Porzig W., 1954; Meyye A., 1938; Benveniste E., 2002 va boshq.]

Shu bilan birga, bu lingvogenetik tadqiqotlar german tillari misolida V.Shtreytberg (1971), F.Kluge (2002) va boshqalar tomonidan atroflicha oʻrganildi.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida esa bu diaxron tilshunoslik masalasi yana tilshunoslar orasida dolzarb boʻlib qoldi. Bu davrda til taraqqiyotida kuzatiladigan jarayonlar masalasi ingliz tilshunosligida V.M. Jirmunskiy (1964), N.Ya. Marr (1937), E.A. Makayev (1970), M.M. Guxman (1962) va boshqalarning ishlarida turli hajm va mazmunda tahlil qilindi.

Oʻzbek tilshunoslaridan german va turkiy tillarining tarixini oʻrganish masalasiga u yoki bu jihatdan yondashgan olimlar sifatida J.Boʻronov (1981), Sh.Safarov (2008), A.Qoʻldoshev (2020), Gʻ.Abduraxmonov (1976), N.Raxmonov (1988), V.Abdurasulov (1996), B.Isabekovni (2015) sanab oʻtish mumkin.

Yuqorida koʻrsatilgan mualliflarning asarlarida divergensiya va konvergensiya hodisalariga boshqa voqea-hodisalarga bogʻliq holda murojaat qilingan, biroq alohida tadqiqot obyekti boʻlib xizmat qilmagan.


TADQIQOT USULLARI

Ayrim holatlarda til birliklarini mukammallashtirish jarayonida til ichki (intralingvistik) va tashqi (ekstralingvistik) omillarining birga ishtirok etishini kuzatamiz. Evolyutsiya tasodifiy narsa emas, u insonning xohish-irodasiga bo'ysunmaydi, uni ehtiyoj, zaruriyat keltirib chiqaradi [Spenser G., 1977]. "Inson evolyutsiya, progress kabi jarayonlarni tushunishga qodir emas, bu inson uchun sir-asrordir" deydi G.Spenser va yana ushbularni qo'shib qo'yadi: "Sir-asror bu fanning oxirgi qadami va dinning birinchi qadamidir".


Evolyutsiya terminiga o'zbek tilshunosi A.Qo'ldoshev (2020) o'zining *"Tilshunoslikda tarixiylik tamoyili"* monografiyasida shunday ta'rif bergan: "Tilning mustahkamligi (ya'ni innovatsiyalarga bardoshliligi) anchayin salbiy tushunchadir. Agar bir avlod va bir ijtimoiy guruhga mansub odamlarning tili u yoki bu darajada bir xil bo'lsa, bir avloddan ikkinchi avlodga o'tishi bilan u asta-sekin o'zgarib boradi. Bunda tovushlar, so'zlarning ma'nosi o'zgarishi mumkin. Bu hodisa til evolyutsiyasi deb ataladi. Bu hodisa til uchun nafaqat mumkin, balki zarur hamdir. Tilning evolyutsiyasi tezroq yoki sekinroq kechishi mumkin, bu narsa shu tilda so'zlashuvchi xalqning tarixiy shart-sharoitlariga bog'liq bo'ladi. Ayrim davrlarda tilning taraqqiyoti tez templarda amalga oshishi mumkin va eski ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning tanazzuli tilning tanazzulini keltirib chiqarishi mumkin" [Qo'ldoshev A, 2020; 67].

Til evolyutsiyasining turli jihatlarini o'rganishning asosiy masalalari, ya'ni tilning evolyutsiyasini belgilab beruvchi asosiy omillar masalasi, til evolyutsiyasi tabiatining fundamental masalalari, til turli sathlarining notekis rivojlanishi tabiatini tahlil qilish masalasi, til evolyutsiyasi turli davrlarining o'ziga xos qonuniyatlarini yoritib berish masalasi, tillarning o'zaro aloqaga kirish tabiatini ochib berish, til taraqqiyotida til kontaktlarining roli va o'rnini aniqlash masalasi, til evolyutsiyasi ichki qonuniyatlarini aniqlashning zarurligi masalasi har tomonlama o'rganildi. German va turkiy tillarida sodir bo'lgan konvergensiya va divergensiya jarayonlari tillarning turli sathlarida, asosan, tilning fonetik sathida (so'zning birinchi – o'zak bo'g'inida dinamik, kuchli urg'u shakllanishi; urg'usiz bo'g'inlardagi unlilar kuchsizlanishi; unlilarda umlaut va sinish hodisalariga olib kelgan assimilyatsion o'zgarishlar; umumgerman birinchi va yuqori nemis tilida ikkinchi undosh ko'chishlari) sodir bo'lishi o'rganildi.


Tilning evolyutsiyasi juda murakkab jarayon. Bunda divergensiya (differensiatsiya), konvergensiya (integratsiya), generalizatsiya (umumiylashuv), spetsifikatsiya (maxsuslashuv), o'lib borish, kuchsizlanish, kengayish va qo'shib ketish – ularning barchasi alohida alohida sodir bo'lmay, bir vaqtda yoki turli davrlarda bir-birini qo'llab-quvvatlab, ergashib sodir bo'lganligi kabi bir qancha jihatlar o'rganildi. Evolyutsiya natijasida quyidagilar sodir bo'lishi aniqlandi.

1-rasm.

Divergensiya, bu – rivojlanish jarayonida tillarning bir-biridan ajralish va farqlanishidir. Tillarning ajralib chiqishi odamlarning hududlarda tarqalib ketishi, jo‘g‘rofiy va siyosiy ajralib chiqishi bilan bog‘liq. Buning natijasida nutqda innovatsiya sifatida leksik, fonetik va grammatik variantlar paydo bo‘ladi, bular esa turli hududda o‘sha davrda yashaydigan xalqlarning nutqidan farq qilardi. Masalan, germanlarning keng tarqab ketishi g‘arbiy, shimoliy va sharqiy hududlarda yashovchi qabila va elatlarning tilida sezilarli hududiy xususiyatlarning paydo bo‘lishiga olib keldi.

2-rasm.

Bir tilning bir qancha qarindosh tillarga bo‘linishi asosida turgan divergensiya tashqari, yangi tillarning paydo bo‘lishida konvergensiya jarayoni ham katta rol o‘ynaydi.

3-rasm.

Konvergensiya, bu – alohida tillarning uzoq muddat aloqada bo‘lganligi asosida yaqinlashishidir. Konvergensiya etnik aralashib ketish va til assimilyatsiyasi orqali sodir bo‘ladi, ya‘ni bunda bir til ikkinchi tilda yo‘q bo‘lib ketadi (unga singib ketadi).

Tillarda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar haqida tilshunoslar tomonidan ko‘plab fikrlar keltiriladi. Misol uchun, A.Qo‘ldashevning (2015) *“Ingliz tili tarixi”* asarida quyidagi fikrlarni o‘qiydiz: “Tildagi o‘zgarishlar xalqning faoliyatini anglab tushunish va hayotning turli taraflari bilan aloqadorlikda bo‘lishini bilish hisoblanadi. Shu bilan birga, bu aloqadorlikning o‘ta murakkab va turli-tumanlik hamda tilning turli sharoitlarda turlicha namoyon bo‘lishini hisobga olish kerak. Shuningdek, til taraqqiyoti rivojlanish jarayonining bir maromda emasligi va bu jarayonning rivojlanish kuchini aniqlash hamma holatlarda ham yengil emasligini tan olish kerak. Misol uchun oladigan bo‘lsak, lug‘at tarkibining rivojlanishi qiyosan fonetik tizimdan yengilroq hisoblanadi. Fonetik tizim ancha qiyin va muammoli masalalarga ega. Bu sohada hal etilmagan masalalar hali yetarlicha hisoblanadi” [Qo‘ldashev A., Xamzayev S., 2015; 7].

German va turkiy tillar morfologik tizimida shakl va so‘z yasashda ablautning ko‘p ishlatilishini me‘yorga solish; kuchsiz o‘tgan zamon shakllarini yasash uchun dental suffiksdan foydalanishning tizimlanishi; sifatarning kuchli va kuchsiz turlanish tizimini me‘yorga solish; fe‘l kategorial shakllarida analitiklashuv tendensiyasini tizimlash kabi konvergent va divergent belgilarning kuzatilishi o‘rganildi.

German va turkiy tillar sintaksisida, lug‘at tarkibining shakllanishi, so‘z yasash sohasida – gapdagi so‘zlar tartibi fiksatsiyalanish jarayonining tugallanishi; lug‘at tarkibida – har bir alohida olingan til tub (xos) so‘zlarining miqdoran ko‘payishi, hind-yevropa bobo tilidan qabul qilingan so‘zlar funksional ko‘laminig kengayishi va so‘z yasash usullari german tillaridagi vositalardan tashqari, har bir tilning o‘ziga xos so‘z yasash usuli hamda vositalarining shakllanishi va rivojlanishi kabi konvergent va divergent belgilarning me‘yorga tushishi tahlil qilindi.

NATIJA VA MULOHAZALAR

Ingliz tili talaffuz me‘yorlarining shakllanish jarayonida ko‘plab divergent belgilarga duch kelamiz. Olimlar bu belgilarning tabiatini atroflicha o‘rganib ularga sabab sifatida substrat omilini ham ko‘rsatadilar. Masalan, ayrim hududlarda etnik kelib chiqishi jihatidan kelt bo‘lgan so‘zlovchilar tilida me‘yordan og‘uvchi quyidagi belgilar kuzatiladi:

- 1) artikulyatsiyadagi zo‘riqlashning yo‘qotilishi;
- 2) ayrim tovushlar talaffuzida uchrayadigan xatolar.

Bu kabi boshqa farqlarning kelib chiqishi, asosan, kelt tillarida muloqot qiluvchilar tomonidan asrlar davomida artikulyatsion jihatdan o‘zining tiliga mos kelmaydigan fonemalarni talaffuz qilganda kuzatiladigan qiyinchiliklar bo‘lib, ularni yengib o‘tish uchun yo‘l qo‘yilgan erkinliklar natijasida vujudga kelgan “gibrid” fonemalar sifatida qabul qilish mumkin. Albatta, talaffuzdagi kontekstual farqlarning barchasini substrat ta‘siriga bog‘layverish ham to‘g‘ri bo‘lmaydi. Bu masalani hal etish esa tadqiqotchidan chuqur tahlilni talab etadi. Masalan, kelt tillari guruhiga

kiruvchi vallon tilida (vallon tilida asosan Uelsda soʻzlashiladi), urgʻu oxiridan ikkinchi boʻgʻinga tushadi, huddi polyak, ispan, lotin va boshqa tillar kabi. Faqatgina juda oz, bir guruh soʻzlardagina bu qoidaga amal qilinmaydi va ularda urgʻuning oʻrni boshqacha. Lekin bu soʻzlarda ham dastlabki holatda urgʻu oxiridan ikkinchi boʻgʻinga tushgan.

Shuni taʼkidlash kerakki, agar har bir hududiy dialekt oʻz tarixiga ega boʻlsa va adabiy tilning xuddi teskari, oʻzlashtirish jarayoniga taʼsirini koʻrsatsa, ijtimoiy shevalar adabiy til bilan doimiy qiyoslash va yonma-yon turishda, yaʼni ularning ijtimoiy dialektlarida rivojlanadi. Farqlash har doim nisbiydir. Bunday hollarda lingvistik va ekstralingvistik omillar doimo oʻzaro taʼsir qiladi [Qoʻldasheva Sh., 2014; 16-19].

Umumgerman divergent belgilar sifatida biz german tillari tarixiy taraqqiyotini belgilab bergan asosiy lingvistik hodisalarning ikki guruhini belgiladik. Bular:

- a) talaffuz tizimida kuzatiladigan divergent va konvergent belgilar;
- b) lugʻat tarkibida kuzatiladigan divergent va konvergent belgilar.

Talaffuz tizimida kuzatiladigan divergent va konvergent beliglar qatoriga quyidagilar kiritiladi:

- undoshlar birinchi koʻchishi;
- undoshlar ikkinchi koʻchishi;
- Verner qonuni;
- rotatsizm;
- undoshlarning choʻzilishi;
- i-mutatsiya;
- sinish hodisasi;
- palatalizatsiya;
- assimilyatsiya;
- urgʻuning birinchi boʻgʻinga koʻchishi;
- urgʻusiz boʻgʻinda unlilarning kuchsizlanishi.

German tillari lugʻat tizimida kuzatiladigan konvergent va divergent belgilar:

- soʻzlar leksik maʼnosining kengayishi;
- soʻzlar leksik maʼnosining torayishi;
- soʻzlar leksik maʼnosining metaforizatsiyasi;
- soʻzlar leksik maʼnosining metanimizatsiyasi;
- leksik maʼnodagi konnotatsiya hodisasi;
- okkazonalizm hodisasi;
- soʻzlar maʼnosidagi stilistik divergensiya.

Alohida olingan bir tilning tarixini uni boshqa guruhdosh qarindosh tillarning tarixini eʼtiborga olmasdan, alohida – yakka oʻrganib boʻlmaydi. Bir oila va bir til guruhiga mansub tillar deyarli umumiy tarixiy taraqqiyotni boshidan kechiradiki, unda, yaʼni alohida olingan bir tilda butun guruhdagi tillarda kuzatiladigan taraqqiyot jarayonlarini kuzatish mumkin. Boshqacha aytganda, ingliz tili tarixini boshqa german tillari guruhiga kiruvchi tillardan ajratib oʻrganishning imkoni yoʻq.

German tillarining umumgerman tillardan shimoliy, sharqiy va gʻarbiy german

tillariga bo‘linishi divergensiya hodisasining natijasidir.

Umumgerman holatidan undoshlarning birinchi ko‘chishi hodisasiga ko‘ra, farqlanib qolgan german tillari boshqa hind-yevropa tillaridan farqlanib qoldi va umum hind-yevropa bobo tilidan bir proto-german tili paydo bo‘ldi va divergent belgilarining joylashuviga qarab uch guruhga bo‘lindi. Shimoliy, sharqiy va g‘arbiy german tillariga kiruvchi tillarda esa bir vaqtning o‘zida konvergent jarayonlar sodir bo‘ldi va bu jarayonlar mana shu uch guruhchaning nisbiy barqarorligini saqlash va boshqa tillarga konvergentlashuviga imkon bermadi.

Qadimgi shimol tillaridagi divergent va konvergent belgilar:

1. So‘z oxiridagi bo‘g‘inlarning kuchsizlanishi: qisqa unlilar tushib qoldiriladi (sinkopa), cho‘ziq unlilar qisqaradi. Masalan: **dagar>dagr* (kun); **horna>horn* (shox); **gastir>gestr* (mehmon); **skeldur>skiqlr* (qalqon); Hozirgi zamon shakli: **bindir>bindr* (to‘qiysan); Dativ kelishigida: **dage>degi* (dagr)dan; **hornē>horni* (horn dan); Ko‘plik shakl: **dagor>dagar*, **gastir>gestir*, **hornu>horn*; *landu>lond* (mamlakatlar).

2. Reduksiya natijasida sodir bo‘ladigan turli ko‘rinishdagi umlaut hodisasi. Masalan: **gastir>gestr*; **landu>lond*; **helpan>hielpa* (yordam bermog‘); **herto* (nem. Herz) *>hiarta* (yurak); **erþu* (nem. Erde) *>iorð* (yep).

3. So‘z boshida til orqa undoshlaridan avval kelgan [j] va [w] tovushlarining talaffuzda yo‘qolib qolishi hodisasi (ya‘ni o‘qilmay qolishi): **jungar>ungr* (yosh); **jēra>är* (yil); **juka>ok* (bo‘yinturuq); **wulfar>ulfr* (bo‘ri); *wurða>orð* (so‘z).

4. So‘z oxirida, shu jumladan infinitivdagi “-n” tushib qoldiriladi: *gevan>gefa* (bermog‘); **ohsan>oxa* “buqa” ning tushum kelishik shakli.

5. Undoshlarda bir qator assimilyatsiya holatlari kuzatiladi. **gulþa>goll* (oltin); *finþan>finna* (topmog‘); *stainar>steinn* (tosh); **stōlar>stoll* (stol); *lausar>lauss* (bog‘lanmagan).

6. Fe’llarda hozirgi zamon birlik shakli tuslanishida soddalashuv sodir bo‘ldi. Qadimgi shimol tilida: **bindir* (to‘qiysan), 3- shaxs birlikda: *bindiþ* (to‘qiydi); island tilida 2- va 3-shaxs birlikda: *bindr*.

7. Fe’llarning o‘rta (o‘zlik) shakli [-sk, -s] qo‘shimchalari olgan holda paydo bo‘ldi: *kallask* (atalmog‘) shakli *kalla -sik* (o‘zini atamoq) shaklidan o‘sib chiqqan.

8. Postpozitiv, aniqrog‘i, otdan keyin kelgan ko‘rsatish olmoshidan suffiks shaklida ishlatiladigan aniq artikl rivojlandi: *dagr-inn* (kun) ingliz tilida: *the day*.

9. Yangi olmoshlar paydo bo‘ldi: *hann* (mujskoy rod uchun); *hon* (jenskiy rod uchun). Shved.: *nagon* (kimdir, biror kimsa); *ingen* (hech kim).

Undoshlarning birinchi ko‘chishi; urg‘uning birinchi bo‘g‘inga ko‘chishi; unlilarda assimilyatsion jarayonlar; sifatlar uchun ikki xil tuslanish modelining shakllanishi; ablautning kuchli fe’llarda kuzatilish; kuchsiz fe’llarda o‘tgan zamon shaklini yasashda kuchsiz preteritda – tish undoshlaridan foydalanish kabi xususiyatlar german tillarining hind-yevropa tillaridan ajralib chiqishga va yangi til guruhining paydo bo‘lishiga olib kelgan. Demak, yuqoridagi hodisalar divergent belgilarning faollashishi bilan bog‘liq.

Faollashgan divergent belgilarning ma‘lum bir fazaga kelganda barqarorlashishi

konvergent belgilarning faollashishi natijasida ro'y beradi.

Hech bir til qatlamining hech qanday til birligi chegarasiz o'zgarishga uchrayvermaydi. Boshqacha aytganda, konvergensiya til birliklarining faolligini ayrim bosqichlarda cheklaydi va yuzaga kelgan dialekt, til yoki hududiy variant ma'lum vaqtgacha nisbatan sekin o'zgaradi, innovatsiyalar tilning o'z mulkiga aylanadi.

Yuqori nemis tili (Hoch deutsch)da ro'y bergan undoshlarning ikkinchi ko'chishi nemis tilidan boshqa tillarda kuzatilmadi. Bu holatda faqat yuqori nemis tili (High German) divergensiya jarayonini boshdan kechirdi. Boshqa tillar esa konvergent elementlarning o'zgarishsiz saqlanib qolinishiga erishdilar.

U yoki bu til konvergent yoki divergent belgilarning faollashuvi davrida turli ekstralingvistik va intralingvistik sabablarga ko'ra ushbu jarayonlarda ishtirok etmasligi mumkin. Bu holda tilning asosiy arealdan uzoqda joylashganligi, shu tilda so'zlashuvchi xalq hayotida (tarixida) turli yirik hodisalar yuz berishi, aniqrog'i, ularning mustamlaka holatiga tushib qolishi, qandaydir ulkan ijtimoiy-siyosiy hodisalarning sodir bo'lishi, ya'ni boshqa davlatni o'z tarkibiga qo'shib olishi, bu tilda so'zlashuvchilarning qirib tashlanishi yoki shu kabi boshqa kulfatlarni boshidan kechirishi bilan izohlanadi.

“Qadimgi ingliz tili va zamonaviy nemis tili o'rtasidagi o'xshashlik otlar o'zgarishining turli shakllaridan (zaif undosh, kuchli unli) og'ishda ham, hatto jinsdagi farqlar (otlar) bilan bog'liq turli xil o'zgaruvchanlik shakllarini ko'rib chiqishda ham yaqqol namoyon bo'ladi. Bu ikki tildan zamonaviy ingliz tili sifatida tilning masofasini ham ko'rish mumkin” [Qo'ldasheva Sh., 2021; 191].

Quyida turli xil o'zlashtirmalar tasnifi natijalari keltiriladi (jadvalda har bir xilga (tipga) amerika-norveg tilidan bittadan misol keltiriladi).

1-jadval.

Turli xil o'zlashtirmalar tasnifi

A. O'zlashtirilgan so'z (qisman yoki to'liq o'tkaziladi, chet til morfemalari)	1. Aslida, o'zlashtirilgan so'z (morfologik almashtirish yo'q)	a. Assimilyatsiyalashmagan (fonologik almashtirish yo'q)	<i>hardvøe'r</i> –band, xalqa tovarlari (ingl. <i>hardware</i>)
		b. Qisman assimilyatsiyalashgan (fonologik almashtirish bor)	<i>har'dwoerstar</i> – band, xalqa va boshqa buyumlarning magazini (<i>hardware store</i>)
	2. Gibrid-o'zlashtirma (qisman morfologik almashtirish: o'tkazilayotgan komponentni ahamiyatiga muvofiq o'zakli yoki periferiylik)	a. Yasalmagan (ahamiyatsiz suffiksni almashtirish)	<i>kar'na</i> – burchak (ingl. <i>corner</i>)
		b. Yasalgan (ahamiyatli suffiksni almashtirish)	<i>far'mar</i> –fermer (ingl. <i>farmer</i>)
		c. Murakkab (to'laqonli ahamiyatli morfemalarni almashtirish)	<i>far'mhu's</i> –fermadagi turar uy (ingl. <i>Farm-house</i>) – periferik, <i>ju'lekar'd</i> –rojdestvo ot-kritkasi (ingl. <i>Christmas Card</i>) – o'zakli

B. O'zlashtirma siljish (<i>ona tili-ning morfemalari almashtirilindi</i>)	1. Yasash (morfemalarning birikmalari tuzilishi o'tkaziladi, yasalgan yoki murakkab so'z yoki so'z birikmasi bo'lishi mumkin)	a. So'zma-so'z (tuzilishi chet ellikga aynan o'xshash)	<i>plane</i> –rejalashtirish (ingl. plan), <i>heimplassen</i> – uy, uylar (ingl. the home place), <i>Wel'av</i> – badavlat (ingl. well of)
		b. Taxminiy (tuzilish chet elliknikidan farqlanadi)	<i>hyrehjelp</i> – yollanma ishchi (ingl. hired help). Amerika-norveg tilida kam uchraydi, solishtir-ing nem. <i>Vaterland</i> – vatan, <i>Patria</i> –don, <i>Haibin-Sel</i> – yarim orol, <i>Peaininsula</i> – don.
	2. Kengayish (tuzilish o'tkazilmaydi, yasalmagan, yasalgan yoki so'z birikmasi bo'lishi mumkin)	a. Omofonik (chet el man-basi bilan sof fonetik)	<i>Brand</i> – kesib tashla (ingl. bran: norv. olov), <i>fila</i> – sezmoq (ingl. feel; norveg –arralamoq)
		b. Gomologik (manbaga jarangi bo'yicha, ma'nosi bo'yicha ham o'xshash)	<i>gron</i> – don (ingl. grain: norv. – boshqoli g'alla o'simliklaridan ovqatlar)
		c. Sinonimik (manbaga faqat ma'no bo'yicha o'xshash)	<i>iykkelig</i> – omadli" (ingl. lucky: norv. "baxtli"); <i>got tid</i> – yaxshi vaqt o'tkazish; (ingl. good time; norv." ko'p vaqt") amer-norv. yo'q, solish.: amer-port. <i>frio</i> –shamol-lash (ingl. gold): <i>corner</i> – lavozimga nomzod bo'lish (ingl. Run for)

2-jadval.

German tillaridagi konvergent va divergent belgilarning uchrash holatlari

№	Divergent va konvergent belgilar	Qadimgi ingliz	Qadimgi friz	Qadimgi sakson	Qadimgi Markaziy nemis	Qadimgi yuqori nemis	Qadimgi quyi frank
1.	Velyar tovushlarning palatalizatsiyasi	+	+	-	-	-	-
2.	Til oldi lablangan unlilardagi lablanish xossasining yo'qolishi	+	+	-	-	-	-
3.	Ikki unli orasida kelgan <i>-h</i> -ning yo'qolishi	+	+	-	-	-	+
4.	II guruh kuch-siz fe'llarda (<i>ō</i>) <i>ja</i> qo'shimchasining ishlatilishi	+	+	ba'zan	-	-	-

5.	Fe'llar ko'plik shakllarining qo'shilib ketishi, unifikatsiyasi	+	+	+	-	-	-
6.	Ingveon tillarda sirg'aluvchi burun tovushlari.	+	+	+	-	-	juda kam hollarda
7.	O'zlik olmoshlarining yo'qolishi	+	+	+	-	-	+
8.	Bir bo'g'inli so'zlarda so'z oxiridagi -z ning tushib qolishi.	+	+	+	-	-	+
9.	III guruh kuchsiz fe'llarning to'rt a'zoli paradigмага qisqarishi	+	+	+	-	-	+
10.	-ai va -au unlilar birikmasining monof-tonglashuvi	+	+	+	qisman	qisman	Doimo
11.	So'z oxiridagi undoshning jarangsizlashuvi	-	-	-	-	-	+
12.	ē va ō unlilarning dif-tonglashuvi	-	-	kam	+	-	+
13.	Undosh oldidan kelgan -h- tovushining so'z boshida tushib qolishi	-	-	-	+	+	+
14.	Undosh oldidan kelgan -w- tovushining so'z boshida tushib qolishi	-	+	-	+	+	-
15.	Yuqori nemis tilidagi undoshlarning ko'chishi	-	+	-	qisman	+	-

Bu jadvalda 6 ta qadimgi german tillarida 15 ta divergent va konvergent belgilarning evolyutsion holatlari ko'rsatilgan. “+” bilan belgilangan o'rinlarda raqamlab o'tilgan belgilardan tegishlisi mavjud bo'lganligini bildirsa; “-” belgisi esa tegishli tilda ularning kuzatilmaganligini ko'rsatadi.

Boshqacha izohlasak, “+” belgisi tegishli tillar uchun konvergent belgi, boshqalar uchun divergent belgi bo'lib xizmat qiladi.

Masalan, 1-belgi, ya'ni velyar tovushlarning palatalizatsiyasi qadimgi ingliz va qadimgi friz tillarida mavjud bo'lganligi va ushbu belgi protogerman yoki umumgerman tilida mavjud bo'lganligi bois konvergent belgi hisoblanadi, chunki bu ikki tilda umumgerman holatida kuzatilgan belgilarni saqlab qolish tendensiyasi kuzatiladi. Umumiy konvergent belgining saqlab qolinishi protogerman tillari umumiyligini saqlab qolishga bo'lgan harakat hisoblanadi.

Til kontaktlari va til tarixidagi hodisalarni, til holatining turli o'ziga xos xususiyatlarini izohlashda va til taraqqiyotida divergent va konvergent belgilarga izoh va baho berganda substrat nazariyasidan foydalanish juda qiyin jarayondir. Chunki substrat hodisasi kuzatilgan vaziyatda tub aholining birlamchi tili yoki bosqinchilarning ikkinchi tili dominant belgilar egasi bo'lgan, deb aytish qiyin. Masalan, kelt va german

tillarida palatalizatsiyaning aynan o'xshash holatlari kuzatilsa, birlamchi holat qaysi guruhda paydo bo'lgan, kelt guruhidami yoki german tillari guruhidami? Bu savollarga javob berish juda mushkul. Bu o'zgarish va innovatsiyalarni til makonida tarqalishiga qaysi tillar mas'ul va faol bo'lganligini – ushbu o'zgarishlarni aniq belgilash juda qiyin. Shunday bo'lsa-da, bu masalani oydinlashtirish uchun divergent yoki konvergent belgilar topilgan tillar tarixini o'rganganda, ularning nutqiy stereotiplari haqida aniq tasavvurga ega bo'lish, bu tillarning innovatsiyalarga bardoshlilik masalasi va bu innovatsiyalarning geopolitik hududda tarqalishini ta'minlashda katta rol o'ynagan ijtimoiy-siyosiy va lingvomadaniy omillar rolini sinchiklab tekshirish zarur. Chunki har qanday divergensiya va konvergensiya hodisalari o'z-o'zidan, nolingvistik tashqi omillarning ta'sirizisiz, faqatgina til ichki qonuniyatlari asosidagina ro'y bermaydi.

O'zbek tilining xalq tarixiga nisbatan aloqalari dinamikasi va mexanizmi masalasining tahlili tilda sodir bo'ladigan konvergent – divergent jarayonlar ortida jamiyatda sodir bo'ladigan konvergent-divergent hodisalar tomonidan belgilab berilishi ma'lum bo'ldi. Diaxron sotsiolingvistikaning diqqat markaziga sotsiolema, aniqrog'i, lisoniy jamoa, chiqadi. Til taraqqiyotidagi konvergent – divergent jarayonlar asosida sotsiolemaalalar taraqqiyotining konvergent – divergent jarayonlari yotadi. Konvergent yoki divergent jarayonlari tillar bilan emas, balki mana shu tillarda so'zlashuvchi jamoa bilan sodir bo'ladi. Kontaktlar tillar bilan emas balki sotsiolemaalalar bilan sodir bo'ladi. Shu nuqtai nazardan bilingvizm sotsiolemaalarning o'zaro bir-biriga kirishuvdir. Bunda bir a'zoning hajmi ikkinchi a'zo hisobiga boyiydi. Sotsiolemaning asosiy integratsiyalovchi omili nutqiy aloqa bo'lgani uchun sotsiolemaning hajmi nutqiy aloqaning intensivligiga bog'liq bo'ladi. Nutqiy aloqa qanchalik intensiv bo'lsa, uning a'zolari o'rtasidagi lisoniy aloqa shunchalik kuchli bo'ladi. Nutqiy aloqaning susayishi sotsiolema va tilning divergensiyaiga olib keladi va real sotsiolema asta-sekin potensial sotsiolemaga aylanib boradi. Bundan tashqari, bu bobda potensial sotsiolemada o'zaro bir-birini tushunish imkoni saqlanib qoladi, lekin ekstralingvistik to'siqlarning mavjudligi oqibatida bu tilda nutqiy muloqot amalga oshirilmaydi. Potensial sotsiolema divergensiyaiga uchraydi va bir necha real sotsiolemaalarga aylanib boradi, lekin tilning nisbiy birligi hali saqlanib qoladi. Agar uzoqroq vaqt davomida bu birlik nutqiy aloqalar bilan qo'llab-quvvatlanmasi til ham divergensiyaiga uchraydi. Nutqiy muloqotning kuchaytirilishi potensial sotsiolemaning realga aylantirishi mumkin. Bu – sotsiolema hajmini orttirishning asosiy usulidir.

Quyidagi jadvalda konvergent va divergent belgilar evolyutsiyasini german va turkiy tillarda tovush almashinuvi misolida ko'rish mumkin.

3-jadval.

German va turkiy tillarda tovush almashinuvi

№	Tovush o'zgarishi	German tillarida	Turkiy tillarda
1.	a>e	gastiz>gestr satian>settan harkis>here	ag'ir>yeg'ir kasa>kesa adil>yedil
2.	e>i	beran>birep	deydi>diydi
3.	o>y	döm>düm (tüm)	cho'chqa > shushqa

4.	k~g	Genu>knee	ek > egin
5.	q~ch	kild>cild [ts] cirk>cirk [ts]	kishi > chishi kim > chim
6.	j ning protezasi	Lotin est>jest	alov > jalov
7.	Geminatsiya	beginnan-beginen Qadimgi ingliz settan Qadimgi ingliz sittan	isit > issiq o'tuz > o'ttiz
8.	i>u lablanish	Triggws>tryggr	o'tin > o'tun
9.	ε > ə	regis>rekkr	deb > dəp
10.	a>o	magus>morg māter>mōdar	o'rsa > orso
11.	u > o	daur>dör	bular>bolor
12.	d>t	deca>ten	podsho>patisho

Umumturkiy leksik konvergent va divergent belgilar o'z boshidan muayyan rivojlanish, o'zgarish va shakllanish bosqichlarini kechirgan.

1. Turkiy tillarda qadimdan mavjud bo'lgan bir qancha leksik birliklar o'zbek tilida hozir ham bir ma'no-shaklda qo'llanmoqda (konvergent belgilar).

2. Turkiy tillarda qadimdan mavjud bo'lgan ko'pgina so'zlar hozir o'zbek tilida bor, ammo o'zbek adabiy tilida talaffuzidagi ayrim o'zgarishlar bilan hozirgacha qo'llaniladi (divergent belgilar).

3. Turkiy tillarda qadimdan mavjud bo'lgan ba'zi so'zlar hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanilmaydi (divergent belgilar).

4. Umumturkiy so'zning qadimiy ma'nolari hozirgi davr o'zbek adabiy tilida toraygan yoki kengaygan holda uchraydi (konvergent belgilar).

5. Qadimgi umumturkiy so'zning eski va yangi (hozirgi ma'nolari) tamoman farqlanadi (divergent belgilar).

Umumturkiy [θ], [ð] tovushlarining hozirgi turkiy tillardagi divergent belgilari, masalan:

ð > z boshqird: *qıð*; turkman: *qıð*; turk: *qız*; o'zbek: *qiz*.

ð > z boshqird: *küð*; turkman: *göð*; turk: *göz*; o'zbek: *ko'z*.

ð > z boshqird: *tuqið*; turkman: *doguð*; turk: *doquz*; o'zbek: *to'qqiz*.

4-jadval.

[ð] fonemasining divergent belgilari

Boshqird	Turkman	Turk	O'zbek
yëð	yüð	yüz	yuz
að	að	az	oz
bıðım	bıðım	bızım	bizning
bıð	bıð	bez	bez (mato)
hıðın	θıðın	sızın	sizning
qıðıl	qıðıl	qızıl	qizil
ayaqñıð	ayaqθıð	ayaqsız	oyoqsiz
yıldəð	yıldırð	yıldız	yulduz
hüð	θöð	söz	so'z

uđım	öđüm	ozum	o‘zim
-	bolmađ	bulmaz	bo‘lmas

Turkiy tillardagi [θ] va [ð] fonemalarining mavjudligi avvallari turkiyshunoslar tomonidan inkor qilib kelingan, lekin jonli til materiallari ularni bu holatning mavjudligini tan olishga majbur qildi [Dmitriyev, 1962].

Yuqoridagi jadvalda biz [ð>d], [ð>z] va [ð>s] divergent elementlarni va xuddi shunday [h>s, u>ö, h>θ, ı>e] o‘zgarishlarini ham ko‘ramiz. Til fonetik strukturasida yuz bergan bu kabi o‘zgarishlar umumturkiydan hozirgi tillarga tomon rivojlanish jarayonini boshlab berganligi kuzatiladi.

5-jadval.

Turkiy tillardagi uzun unlilarning divergent o‘zgarishlari

Umumturkiy divergent belgilar	Turkman tili	Yoqut tili	Tuva tili	O‘zbek tili
*āq	Āk	-	Āk	oq
*āt	At	āt	At	ot
*āq	āch (q)	āc	Aм	os
*ādik	ādik	-	Idik	edik
*bāj	bāj	bāj	Baj	boy
*bār	bār	bār	Bar	bor
*bāsh	bash (f)	baʃ	Bās	bosh
*in	hın	In	-	in
*ish (f)	ish (f)	İs	ıʃ	ish
*dāz	jāz	sās	ʃāc	bahor
*dā	ī	sie	ʃē	yemoq

Ushbu jadvaldagi ma’lumotlar haqida shularni aytish mumkin-ki, turkiy tillardagi unlilar cho‘ziqligi ko‘p tillarga xos, lekin ayni paytda ular tillarni farqlovchi divergent belgilar sifatida chiqishi mumkin. Masalan: Umumturkiy shakl bo‘lgan unlilar tuva va o‘zbek tillarida faqat qisqa unlilarga mos keladi. *āuu>au*; *āt>at*; *bāuu>bau* va hokazo. Ammo shu bilan birga o‘zbek tilida *a* yoki *ā* emas, balki [o] unlisi kelmoqda. [o], bu – *ā* ning qisqasi emas, balki butunlay boshqa unli. Ehtimol, o‘zbek tilida unlilar singarmonizmining kuzatilmaligi sababini shu yerda ko‘rarmiz. Boshqa tillarda o‘sha so‘zlarga *-lar* ko‘plik qo‘shimchasini qo‘shsak *atlar*, *ashlar*, *baylar*, *bashlar* hosil bo‘ladi, agar *ish* va *in* so‘ziga *-lar* qo‘shsak: *ishler*, *inler* kabi so‘zlar paydo bo‘ladi. O‘zbek tilida esa bu qonun ishlamaydi. *-lar* qo‘shsak *oqlar*, *otlar*, *boylar*, *borlar*, *ishlar*, *inlar* va boshqalar paydo bo‘ladi.

O‘zbek tili lug‘at tarkibini o‘rganishda barcha masalalar hal qilingandek tuyulsa-da, hali ko‘p masalalar yechimini kutib turibdi. Ko‘pchilik mutaxassislar “o‘zbek tilining o‘z qatlami” degan termin deganda, faqat umumturkiy so‘zlarni tushunadilar. Aslida esa, amalda o‘zbek tilining o‘z qatlami quyidagi to‘rt qatlamni tashkil etadi.

6-jadval.

O'zbek tili lug'at tarkibining so'z qatlami
Umumturkiy so'zlar
Umumturkiy so'zlardan yasalgan o'zbekcha so'zlar
Chet tili elementi negizida o'zbek tilining o'zida o'zbekcha affikslar yordamida yasalgan so'zlar
O'zbekcha so'zlarga chet tillardan o'zlashgan qo'shimchalar qo'shish orqali hosil qilingan so'zlar

VI–VII asrlarga oid yozma yodgorliklar – yozma obidalar va tarixiy manbalarda qo'llanilgan so'zlarning glossariylari, lug'atlari va yodnomalarda uchraydigan so'zlarning hozirgi o'zbek tilida mavjudligi ularni umumturkiy so'zlar deb atashga imkon beradi.

Ilmiy adabiyotlarda o'zbek tilida umumturkiy so'zlarning quyidagi semantik guruhlari ishlatilishi qayd etilgan.

7-jadval.

Umumturkiy so'zlarning semantik qatlamlari
Qarindoshlik, yaqinlikni bildiruvchi so'zlar
Organizm va uning qismlarini bildiruvchi so'zlar
Vaqt, zamon, fasl ma'nolarini bildiruvchi so'zlar
Tabiat voqea-hodisalarini bildiruvchi so'zlar
Qazilma-boyliklarni bildiruvchi so'zlar
Hayvon va qushlarning nomlari
O'rin-joy, boshpana va turmushga aloqador tushunchalarni bildiruvchi so'zlar
Ijtimoiy-siyosiy – hayot va harbiy tushunchalar bilan bog'liq so'zlar
Mavhum tushunchalarni bildiruvchi so'zlar
Rangni bildiruvchi so'zlar
Xususiyat va xossani bildiruvchi so'zlar
Harakat, holat va nutqni bildiruvchi so'zlar

Son va miqdorni anglatuvchi soʻzlar	
Olmoshlar	
Etnonimlar	

Oʻzbek tilining shakllanishi va rivojlanishida umumturkiy konvergent va divergent belgilar evolyutsiyasini umumiy xulosalagan holda quyidagilarni aytish mumkin.

– Oltoy tillar oilasi shakllangan paytda umumturkiy belgilar konvergent belgilar sifatida turkiy tillar oilasi tarkibida turkiy tillar guruhining shakllanishida fonetik tizim, grammatik struktura va lugʻat tarkibining turkiy tillar uchun umumiy belgilar asosida birlashgan bir tilning shakllanishiga olib keldi.

– Oltoy bobo tilining tarkibidagi turli shevalardan bir yaxlit tilga rivojlanib oʻtgan turkiy bobo til konvergensiya jarayonining mahsuli, natijasi edi. Rivojlanish jarayonida toʻxtash boʻlmaydi va umumturkiy bobo tilda muayyan bir umumiy talaffuz, grammatik struktura va lugʻat tarkibi yaratildi va shu bobo tilda soʻzlashuvchi qabila yoki elatlarga muloqot vositasi, madaniyat tashuvchisi boʻlib xizmat qildi.

– Umumturkiy bobo tilda soʻzlashuvchi qabila va ellarning Yevropa va Osiyo hududlari boʻylab tarqalishi oʻz madaniyati va diniy qarashlarini oʻzgartirib borganliklari natijasida bobo tilda soʻzlashuvchi ellar, qabilalar tillari orasida sezilarli farqlar paydo boʻla boshladi. Bu esa, endi divergent belgilarning faollashuv davri boʻldi.

– Divergent belgilarning faollashuvi natijasida umumturkiy bobo tillardagi shevalar va sheva guruhlar alohida tillarga rivojlanib bordilar. Bu jarayon tarixchilarimizning maʼlumot berishlaricha, eramizdan avvalgi, birinchi mingyillikda sodir boʻldi.

– Eramizning birinchi ming yilligida esa, hozirda biz har bir guruhda va guruhchada sanab oʻtadigan tillarning eng arxaiklari shakllandi, keyinroq esa hozirgi kunda geneologik klassifikatsiyada kuzatadigan jarayonlari kuzatildi.

XULOSA

Umumgerman va umumturkiy tillardagi konvergent va divergent holatlarini farqlovchi belgilar tahlili quyidagilarni aniqlash imkonini berdi.

Birinchi belgi. Tilda soʻzlashuvchilarning turli avlodlari oʻrtasidagi munosabatga koʻra konvergentlik holatida soʻzlashuvchilarning yangi avlodi oʻzlaridan avvalroq yashagan odamlar nutqiy stereotiplarini takrorlashga harakat qiladi. Divergentlik holatida esa, soʻzlashuvchilarning yangi avlodi oʻzlaridan avvalroq yashagan odamlar nutqiy stereotiplarini qoʻllamaslikka, talaffuz normalarini oʻzgartirishga, gap tuzish qoidalarini buzishga, moddiy borliqdagi narsa va hodisalarning yangi holatlarini yaratishga urinadilar.

Ikkinchi belgi. Muayyan bir tilda soʻzlashuvchi xalq mavjud boʻlgan vaqtga

munosabatga ko'ra tilning konvergent holatida vaqtni me'yorlashning siklik sanash tizimi amal qiladi-ki, unga ko'ra vaqt takrorlanadigan mohiyat sanaladi va umuman olganda, voqea-hodisalarning izchil ketma-ketligini voqelantirish xususiyatlarini saqlab qoladi.

Tilning divergent holatida esa vaqtni chiziqli o'lchash tizimi amalda bo'ladi va bunda bir martalik, takrorlanmaslik holatlari dominant hisoblanadi. Buning natijasida borliqdagi voqea-hodisalar vaqt kesimida izchil o'zgarishga uchraydi, rivojlanish kuzatiladi.

Uchinchi belgi. Xalqning yashagan hududi, muhitiga, tabiatga bo'lgan munosabati belgisiga ko'ra tilning so'z yasash potentsiali (imkoniyati) va nominativ jihati xalq yashab kelgan tabiat, landshaftning holatiga moslashtirilgan, hududning o'ziga xos xususiyatlarini o'zida aks ettirgan. Bu belgiga muvofiq divergentlik holatida tilning so'z yasash potentsiali va nomlash imkoniyatlari xalq yashab kelgan hudud landshaftida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni, tabiat, jamiyat va inson o'rtasidagi munosabatlar natijasida kuzatiladigan yaxshilanish, mukammallashish mexanizmini aks ettiradi.

To'rtinchi belgi. Muayyan hududda yashaydigan boshqa etnoslarga bo'lgan munosabatga ko'ra konvergentlik holatida qo'shni etnoslar yashash hududini chegaralab olish uchun obyektlar va istehkomlar yaratish, yaxshi qo'shnihilik aloqalarini o'rnatish, chegaraning narigi tarafida joylashgan xalqlar davlatchilik tizimining amaldagi holatidan xabardor bo'ladilar. Hududi mavjud tillarning taqdiriga nisbatan, ularni saqlab qolishga xayrixoh bo'ladi. Divergentlik holatiga ko'ra mavjud tilda so'zlashuvchi xalq o'zi yashab kelgan hududni doimo kengaytirishni o'ylaydi, yangi hududlarni bosib olish yoki o'z davlati hududiga qo'shib olish, o'z tilini boshqa tilda so'zlashuvchilar tomonidan qo'llanilishi uchun barcha – turli siyosiy, iqtisodiy, harbiy chora-tadbirlarni ko'radi. O'z tilida so'zlashuvchilar genofondini ko'paytirish uchun kurash olib boradi.

Beshinchi belgi. Mavjud tilda so'zlashuvchi xalqlar vakillarining o'z ajdodlariga munosabati belgisiga ko'ra konvergent holatda muayyan davlatda yashaydigan xalqlar biror-bir tilda so'zlashuvchi aholi sonini kamaytirib borishga harakat qiladi. Ma'lum bir vaqtda, yangi tug'ilgan go'daklar, muayyan bir reja asosida, izchillik bilan o'ldirib boriladi. Divergent holatda muayyan bir tilda so'zlashuvchi xalq vakillari o'sha tilda so'zlashuvchi odamlar sonining ko'payishini xohlaydi, shu jumladan aralash nikohlar, qo'shni xalqlar vakillari bilan nikohlar rag'batlantiriladi.

Bularning barchasi shu tilda so'zlashuvchi genofondning ko'payishiga xizmat qiladi.

Oltinchi belgi. Hududda so'zlashadigan til vakillarining shu hududda e'tiqod qilinadigan din yoki dinlarga munosabati belgisiga ko'ra konvergent holatda juda jiddiydir. Bunda dinga munosabat gepoteizm shaklida bo'ladi, o'zga tilda so'zlashuvchi xalqlarga hukmron dinni qabul qilishga ruxsat berilmaydi. Boshqa til va madaniyat vakillari uchun u yopiq zona hisoblanadi.

Divergent holatda esa dinga bo'lgan munosabat ochiq bo'lishi mumkin, aniqrog'i bu yerda prozelitizmga yo'l qo'yiladi, aniqrog'i, aholi bu yerdagi hukmron

dindan boshqa – qo‘shni davlatda hukmron dinga e‘tiqod qilishi mumkin. Ikkinchi munosabat esa, diniy bag‘rikenglikning taqiqlanishi bo‘lib, davlatda boshqa dinlar butunlay ta‘qiqlanadi va ularga e‘tiqod qiluvchilar ta‘qib ostiga olinadi.

Yettinchi belgi. Tilda so‘zlashuvchi aholining hududdagi ijtimoiy hayotga bo‘lgan munosabati nuqtai nazaridan konvergent holatida muayyan bir davlat hududida yashaydigan aholi jamiyatda shakllangan ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy guruhlar va tilga bo‘lgan munosabatning saqlanib qolishi uchun kurashadi. Davlat aholisining katta qismi amaldagi til siyosatini qo‘llab-quvvatlaydilar va uning o‘zgarmasligini hohlaydi.

Divergent holatda esa jamiyatda asosiy til sifatida xizmat qiladigan tilda so‘zlashuvchilar amaldagi til siyosatidan norozi, uni qo‘llab-quvvatlamaydilar va tilning funksional ko‘lamini rivojlantirish uchun kurash olib boradilar, jamiyatda tilning yanada gullab-yashnashini, uning jamiyat ijtimoiy hayotida yanada kattaroq mavqega ega bo‘lishini xohlaydi.

Sakkizinchi belgi. Til amalda bo‘lgan davlatda so‘zlashuvchilarning begona madaniyatlarga munosabati konvergent holatida muayyan hududda yashovchi xalqlar tomonidan amal qilinadigan madaniyat va madaniy qadriyatlar va boshqa g‘oyalarga nisbatan butunlay salbiydir. Boshqa til va madaniyat sohiblari ilgari suradigan g‘oyalar inkor qilinadi, ammo boshqa madaniyat vakillari tomonidan yaratilgan texnika va texnologiyalar to‘siqsiz qabul qilinadi. Divergensiya holatiga kelsak, bunda boshqa til va madaniyat vakillari tomonidan ilgari surilayotgan g‘oyalar darhol qabul qilinadi, o‘zga til va madaniyatning hududda rivojlanishiga imkoniyat yaratiladi, yangi texnika va texnologiyalarni qabul qilish oddiy holga aylanadi.

To‘qqizinchi belgi. Til sohiblarining mamlakatda mavjud ijtimoiy institutlarga munosabati masalasiga kelsak, konvergensiya holatida tilda so‘zlashuvchi aholi tomonidan mamlakatda mavjud siyosiy tuzum va ijtimoiy institutlar qo‘llab-quvvatlanadi, ularni o‘zgartirish kun tartibiga qo‘yilmaydi.

Divergentlik holatida esa, mamlakatda mavjud ijtimoiy institutlar va siyosiy tuzumni yangilash, mukammallashtirish uchun harakat oddiy holat hisoblanadi. Til siyosati liberallasadi, boshqa tillardan erkin foydalanish qo‘llab-quvvatlanadi. Til me‘yorlari kuchsizlanadi.

O‘ninchi belgi. Holatning hayotiy sikli davomiyligining belgisi haqida gapirsak, konvergensiya holati hayotiylik siklining davomiyligi faqatgina tashqi omillarning stixiyali ravishda yoki antropogen xarakterga ega bo‘lgan omillar yordamida buzilishi yoki belgilanishi mumkin.

Divergensiya holatida esa hayotiylik siklining davomiyligi kamida 1200–1500 yil bo‘lishi mumkin. Bunda boshlanish nuqtasi sifatida alohida olingan bir tilning paydo bo‘lish, aniqrog‘i, shakllanish va rivojlanishi uchun ketgan davr e‘tiborga olinadi. Sikl oxiri sifatida tilning butunlay yo‘qolib ketishi, yoki biror til oilasi yoki guruhidagi relikt tilga aylanib qolishigacha belgilanadi.

Sotsiolema dinamikasi sotsiumlar dinamikasiga bog‘liq bo‘lib, u asosan, ishlab chiqarishning rivojlanishi va ishlab chiqarish munosabatlarining almashinishi bilan aniqlanadi.

1. Tilda sodir bo'ladigan o'zgarishlarning sababi – nutqqa turli innovatsiyalarning kirib kelishidir. Xalq psixologiyasi, madaniyati, jismoniy omillarning o'zaro aloqasi til taraqqiyotiga sabab bo'ladi.

Tilning u yoki bu qatlamida (fonetik, grammatik, leksik) ro'y bergan har qanday o'zgarish bu tilning boshqa tillardan farqlanishiga qo'yiladigan qadamdir.

2. Moddiy borliq bilan aloqa natijasida paydo bo'ladigan har qanday analogiya tilning o'zgarishiga, farqlanishiga olib keladi. Tilda so'zlashuvchilar ijtimoiy, madaniy, hududiy va boshqa omillarga ko'ra qancha ko'p guruhlarini tashkil etsa, tilning divergensiyaga bo'lgan potentsiali shu qadar yuqori bo'ladi. Tillararo divergensiya hodisasi tilning fonologik tizimida til kollektivida turli tovushlar qo'llanilishi natijasida boshlanadi. Tilning bir sifat holatidan boshqa bir sifat bosqichiga o'tishi til grammatik qurilishida sodir bo'ladigan o'zgarishlarning maksimal darajaga namoyon bo'lishi bilan xarakterlanadi.

3. Tilda muloqot qilinganda kuzatiladigan ko'plab spontan o'zgarishlar va shu tilda so'zlashuvchi turli individlar tomonidan kiritilgan leksik va talaffuz innovatsiyalari differensiyaga sabab bo'la olmaydi.

Tildagi divergensiyaga faqat til tizimi tomonidan asoslangan, til taraqqiyoti umumiy yo'nalishiga mos keladigan o'zgarishlarga sabab bo'ladi.

Til ijtimoiy hodisa bo'lganligi uchun faqatgina butun so'zlashuvchilar jamoasi tomondan qabul qilingan innovatsiyalarga tilni divergensiyaga, shu yo'l bilan taraqqiyotga olib kelishi mumkin.

4. Bir tilda so'zning okkazonal ma'nosi uzual ma'noga aylansa, abstrakt ma'noli so'z konkret ma'noni bildirsa boshlasa va boshqa qarindosh tilda bu narsa sodir bo'lmasa, divergensiya hodisasi sodir bo'lgan deb hisoblanadi.

So'z ma'nosining shaxs madaniy rivojlanish darajasiga bog'liqligi haqiqat bo'lsa, bu tilni rivojlantirishi mumkin, ammo uni boshqa tillardan farqlanishiga olib kelmaydi. Tildagi so'z ma'nosida xalqning madaniy jihatdan rivojlanishi aks etsa, tillararo farqlanish kuzatiladi.

5. Divergensiya hodisasi sodir bo'lishi uchun til qabila tili yoki kichikroq etnos tili statusida bo'lishi shart emas. Hatto funksional jihatdan juda rivojlangan tillarda ham divergensiya hodisasi ro'y berishi mumkin.

Tillar tarixida divergensiya hodisasi konvergensiya hodisasiga qaraganda ko'proq kuzatiladi. Har qanday butunlik bir vaqt kelib parchalanishi mumkin. Ammo har qanday parchalar ham bir kun kelib birbutun bo'lolmaydi.

Konvergensiya hodisasi bir martalik hodisa va u takrorlanmaslik xususiyatiga ega, divergensiya esa doimiy hodisa, u takrorlanish xususiyatiga egadir.

Divergensiya va konvergensiya hodisalari avtonom mohiyatga ega va ular bir-birining sodir bo'lishini taqozo etmaydi.

Divergensiyaga sababchi bo'lgan belgi yoki xususiyat bir vaqtning o'zida konvergensiyaga ham sabab bo'lolmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurasulov, V. (1996). *Turkiy tillar qiyosiy grammatikasi*. Toshkent: Fan.
2. Abduraxmonov, G'. (1976). *O'zbek tili tarixiy grammatikasi*. Toshkent: Fan.
3. Benveniste, E. (2002). *General linguistics*. Moscow.
4. Brugmann, K. (1970). *Kurze vergleichende Grammatik der indogermanischen Sprachen*. Berlin: Walter de Gruyter.
5. Burlak, S.A., & Starostin, S.A. (2001). *Introduction to linguistic comparative studies*. Moscow.
6. Buronov, J.B. (1981). *Comparative typology of English and Turkic languages*. Moscow: Higher School.
7. Del'bryuk, B. (1904). *Vvedeniye v izucheniye yazyka*. Sankt Peterburg.
8. Desnitskaya, A.V. (1955). *Voprosy izucheniya rodstva indoyevropeyskikh yazykov*. Leningrad: Izdatel'stvo Akademii nauk.
9. Dmitriyev, N.K. (1962). *Stroy tyurkskikh yazykov*. Moskva: Izdatel'stvo vostochnoy literatury.
10. Dybo, A.V. (1992). *Semanticheskaya rekonstruktsiya v altayskoy etimologii*. Diss. na soiskaniye uchenoy stepeni dok. filol. nauk. Moskva.
11. Gamkrelidze, T.V., Ivanov, V.V. (1986). *Indoyevropeyskiy yazyk i indoyevropeysy: Rekonstruktsiya i istoriko-tipologicheskiy analiz prayazyka i protokul'tury*. Tbilisi: Izdaniye Tbilisskogo universiteta.
12. Gukhman, M.M., Zhirmunskiy, V.M. (1962). *Sravnitel'naya grammatika germanskikh yazykov*. Moskva: Izdatel'stvo Akademii nauk.
13. Hurford, J.R. (2011) *The origins of Ggamma: Language in the light of Evolution*. Oxford University Press.
14. Isabek, B. (2015) *Turkologiyaga kirish*. Toshkent: Akademnashr.
15. Kluge, F. (2002). *Etymologisches Wörterbuch der deutschen Sprache*. Berlin: Walter de Gruyter.
16. Kuldasheva, Sh. (2014). On the nature of convergent and divergent features in language change. *Philology Matters*, 3-4, 16-19.
17. Kuldasheva, Sh. (2021). On some features of language development. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 27(1), 190-195. <https://ijpsat.ijsh-journals.org/index.php/ijpsat/article/view/3176>
18. Lehmann, W. (1986). *A gothic etymological dictionary*. Leiden: E.J. Brill.
19. Makayev, E.A. (1970). *Struktura slova v indoyevropeyskikh i germaniskikh yazykakh*. Moskva: Nauka.
20. Marr, N.Y. (1937). *Izbrannyye raboty*. Leningrad: Gosudarstvennoye sotsial'no-ekonomicheskoye izdatel'stvo.
21. Meyye, A. (1938). *Vvedeniye v sravnitel'noye izucheniye indoyevropeyskikh yazykov*. Moskva: Leningrad.
22. Mudrak, O.A. (2000). *Obosoblennyy yazyk i problema rekonstruktsii prayazyka*. Diss. na soiskaniye uchenoy stepeni dok. filol. nauk. Moskva.
23. Myusse, L. (2007). *Varvarskiye nashestviya na Yevropu: germanskiy natisk*. Sankt-Peterburg.
24. *O'zbek tili leksikologiyasi*. (1981). Toshkent: Fan.
25. Paul, G. (1960). *Printsipy istorii yazyka*. Moskva: Izdatel'stvo literatury na inostrannom yazyke.
26. Polivanov, Y.D. (1924). *K voprosu ob obshcheturetskoy dolgote glasnykh*. *Trudy SAGU*, 6. Toshkent.
27. Porzig, W. (1954) *Die Gliederung des indogermanischen Sprachgebietstr*. Heidelberg: Carl Winter Universitätsverlag.
28. Qo'ldoshev, A., Xamzaev, S. (2015). *Ingliz tili tarixi*. Toshkent: Darss Print.
29. Qo'ldoshev, A. (2020). *Tilshunoslikda tarixiylik tamoyili*. Toshkent: Yangi nashr.

30. Rakhmonov, N. (1988). *Turkiy k, avmlar tarikhi*. Toshkent: Fan.
31. Safarov, Sh.S. (2008). *Pragmalingvistika*. Toshkent: Fan.
32. Smirnitkiy, A.I. (1940). *Khrestomatiya po istorii angliyskogo yazyka*. Moskva: Izdatel'stvo inostrannoy literatury.
33. Spenser, G. (1977). *V Burzhnaznaya filosofiya kanuna i nachala imperializma*. Moskva: Vysshaya. shkola.
34. Stepanov, Y.S. (1975). *Osnovy obshchego yazykoznaniya*. Moskva.
35. Streitberg, W. (1971). *Die gotische Bibel*. Heidelberg: Winter.
36. Tallerman, M. (2005). *Language origins: Perspectives on evolution*. Oxford University Press.
37. Zhirmunskiy, V.M. (1964). *Vvedeniye v sravnitel'no-istoricheskoye izucheniye germanskikh yazykov*. Moskva: Nauka.

REFERENCES

1. Abdurakhmonov, G. (1976) *Historical grammar of the Uzbek language*. Tashkent: Science Publishing House.
2. Abdurasulov, V. (1996). *Comparative grammar of Turkic languages*. Tashkent: Science Publishing House.
3. Benveniste, E. (2002). *General linguistics*. Moscow.
4. Brugmann, K. (1970). *Brief comparative grammar of the Indo-European languages*. Berlin: Walter de Gruyter.
5. Burlak, S.A., & Starostin, S.A. (2001). *Introduction to linguistic comparative studies*. Moscow.
6. Buronov, J.B. (1981). *Comparative typology of English and Turkic languages*. Moscow: Higher School.
7. Delbryuk, B. (1904). *An introduction to the language study*. Saint Petersburg.
8. Desnitskaya, A.V. (1955). *Issues of studying the relationship of Indo-European languages*. Leningrad: Publishing House of the Academy of Sciences.
9. Dmitriyev, N.K. (1962). *The structure of the Turkic languages*. Moscow: Oriental Literature Publishing House.
10. Dybo, A.V. (1992). Semantic reconstruction in Altaic etymology. *DSc thesis in philol. scien*. Moscow.
11. Gamkrelidze, T.V., & Ivanov, V.V. (1986). *Indo-European language and Indo-Europeans: Reconstruction and historical-typological analysis of proto-language and proto-culture*. Tbilisi: Tbilisi University Edition.
12. Gukhman, M.M., & Zhirmunskiy, V.M. (1962). *Comparative grammar of the Germanic languages*. Moscow: Publishing House of the Academy of Sciences.
13. Hurford, J.R. (2011). *The origins of grammar. Language in the light of evolution*. Oxford University Press.
14. Isabek, B. (2015). *Introduction to Turkology*. Tashkent: Akademnashr Publishing House
15. Kluge, F. (2002). *Etymological dictionary of the German language*. Berlin: Walter de Gruyter.
16. Kuldashev, A., & Khamzaev, S. (2015). *The history of English language*. Tashkent: Darss Print. (in Uzbek)
17. Kuldashev, A.M. (2020). *The principle of history in linguistics*. Tashkent: New Edition Publishing Press.
18. Kuldasheva, Sh. (2014). On the nature of convergent and divergent features in language change. *Philology Matters*, 3-4, 16-19.
19. Kuldasheva, Sh. (2021). On some features of language development. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 27(1), 190-195. <https://ijpsat.ijsht-journals.org/index.php/ijpsat/article/view/3176>
20. Lehmann, W. (1986). *A gothic etymological dictionary*. Leiden: E.J. Brill.
21. *Lexicology of the Uzbek language*. (1981). Tashkent: Science Publishing House.

22. Makayev, E.A. (1970). *Word structure in Indo-European and Germanic languages*. Moscow: Science Publishing House.
23. Marr, N.Y. (1937). *Selected works*. Leningrad: State Socio-economic Publishing House.
24. Meillet, A. (1938). *An introduction to the comparative study of Indo-European languages*. Moscow: Leningrad.
25. Mudrak, O.A. (2000). Separate language and the problem of the reconstruction of the proto-language. *DSc thesis in philol. scien*. Moscow.
26. Myusse, L. (2007). *Barbarian invasions of Europe: The German onslaught*. Saint Petersburg.
27. Paul, G. (1960). *Principles of historical writing*. Moscow: Publishing House of Literature in Foreign Languages.
28. Polivanov, Y.D. (1924). On the question of common Turkish vowel length. *Proceedings of SAGU*, 6. Tashkent.
29. Porzig, W. (1954). *The structure of the Indo-European language area*. Heidelberg: Carl Winter Universitätsverlag.
30. Rakhmonov, N. (1988). *History of Turkic peoples*. Tashkent: Science Publishing House.
31. Safarov, Sh.S. (2008). *Pragmalinguistics*. Tashkent: Science Publishing House.
32. Smirnitskiy, A.I. (1940). *Reader on the history of the English language*. Moscow: Publishing House of Foreign Literature.
33. Spenser, G. (1977). *In bourgeois philosophy on the eve and the beginning of imperialism*. Moscow: Higher School.
34. Stepanov, Y.S. (1975). *Fundamentals of general linguistics*. Moscow.
35. Streitberg, W. (1971). *The gothic Bible*. Heidelberg: Winter.
36. Tallerman, M. (2005). *Language origins: Perspectives on evolution*. Oxford University Press.
37. Zhirmunskiy, V.M. (1964). *An introduction to the comparative historical study of the Germanic languages*. Moscow: Science Publishing House.